

## AMALIY MASHG`ULOTLARNI TASHKL ETISH SHAKILLARI VA METODLARI

*G'ulomov Shoxobbos Sherali o'g'li*

*Farg'ona Shahar kasb-hunar maktabi jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

*Barziyev Dilshod Sadirdinovich*

*Ibragimov Shuhratbek Shukuraliyevich*

*Farg'ona Shahar kasb-hunar maktabi ta'lif ustalari*

*Abdurahmonova Rohilaxon Solijonovna*

*Farg'ona Shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish shakillari va metodlari haqida bayon qilingan. Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etishda an'anaviy ta'lif berish usullari to`g`risida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so`zлari:** Amaliy mashg`ulot, Fan-texnika, ta'lif beruvchi va oluvchi, ta'lifni tashkil etish shakllari.

Ma'ruza materiallarini chuqurroq o'zlashtirish, o'rganilgan pdagogik ma'lumotlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirish maqsadida amaliy mashg`ulotlar tashkil qilinadi. Amaliy mashg`ulot – bu ta'lif beruvchini ta'lif oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg`ulotni o'qitish shaklidir.

Amaliy mashg`ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan amaliy mashg`ulotlar. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan amaliy mashg`ulotlarda asosan ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi. Amaliy mashg`ulotning o'ziga xos tomoni o'quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o'rni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg`ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma'ruza, amaliy mashg`ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan malumotlarni chuqur va puxta o'rganishga o'zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti ta'lif jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta'lifning faol metodlari va texnologiyalarini qo'llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an'anaviy ta'lif berish usuli ta'lif oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o'sishiga ham yordam beradi. Hozirgi vaqtida respublikamizning barcha ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta'lif

oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko'nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi.

*Amaliy mashg'ulotlarni tashkiliy shakllari* deganda, ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o'qitishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lism oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta'lism oluvchilarning o'qishga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O'qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta'lism-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o'quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog'liq bo'ladi. Ta'lismi tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir. Ta'lism jarayoni ishtirokchilari (ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limga tashkiliy shaklini anglatadi. Mutaxassislik fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlari -ni tuzilish tarkibi tushuniladi. Mutaxassislik fanlarni o'qituvchilar maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda, o'quvchilarni nazariy mashg'ulotlar davomida olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar. Tajriba-amaliy mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad ko'p jihatdan uni o'tkazish metodikasini o'quvchilar ishiga maxsus fan o'qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. Talabalar nazariy materialni o'zlashtirib olganlaridan, o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so'ng ular bilan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazish ancha oson ko'chadi. Bu holda o'qituvchi- ning yangi mavzu bo'yicha mashg'ulot o'tkazishga oid o'quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo'ladi. Natijasiga asoslanib talabalar ma'lum xulosalar chiqarishi kerak bo'lgan tajriba-amaliy mashg'ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta'lism oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o'qituvchining o'quv axboroti ancha batafsil bo'lishi zarur. O'qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg'ulotlari- ning bajarilish jarayoniga yo'riqnomaga berish yo'li bilan rahbarlik qiladi. Yo'riqnomaga berishdan asosiy maqsad o'quvchilar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo'nalish asoslarini yaratishdan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insonnинг mehnat faoliyati ikki tomonga: yo'nalish va ijro tomonlariga ega. Yo'nalish tomoni faoliyatning ob'ektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va

shu kabilar)ning inson ruhiyatidagi in'ikosi, ijo tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi. I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, yo'naliш refleksi markaziy asab tizimida shartli bog'lanishlar hosil bo'lishiga asos hisoblanadi. Bu bog'lanishlar bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishning fiziologik asosidir. Tajriba amaliy mashg'u lotlarini o'quv jarayonida amalga oshirishda yo'riqnomalar tizimidan foydalani- ladi. Yo'riqnomalar mashg'ulotda o'tkazilish vaqtiga ko'ra kirish, joriy va yakun- lovchi yo'riqnomalarga; ma'lumot berish usuliga ko'ra og'zaki va yozma yo'riq- nomaga bo'linadi. *Kirish yo'riqnomasi* o'quvchilarni tajriba-amaliy mashg'ulot- larni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajriba amaliy mashg'ulot bajariladigan ishdan ko'zlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yo'llar o'quvchilarga tushunarli bo'lган taqdirdagina ijobjiy va qimmatli natijalar beradi. Kirish yo'riqnomasining metodikasi ko'p jihatdan tajriba-amaliy mash- g'ulotni o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday o'tkazilishiga bog'liq. Amaliy (lotincha amaliyium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo'yicha ma'lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo'lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o'quv jarayoniga ko'chib, bilim darjasini fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlari aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda amaliy mashg'uloti suhbat, ma'ruza bo'yicha fikr almashish, rolli o'yinlar shaklida o'tkazish nazarda tutilgan. Mashg'ulotni amaliy, ma'ruzada o'tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, amaliy rejasida ko'rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to'qnashushi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo'lga qo'yiladi. Shuning uchun amaliy olib boruvchi o'qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, baxs-munozara ishlarini, o'z nuqtai nazarini dalilash, o'zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo'llarini aniq tanlashi lozim. Mashg'ulotning yakunida o'qituvchi umumiyl xulosa yasab, amaliy mashg'ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi amaliy mashg'ulotini o'tkazish haqida tavsiyalar berish, o'ylab ko'rish, fikrlarni yanada to'ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro'yxatini e'lon qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilmiy nazarini, amaliy- metodik jihatdan yuksak darajada o'tkazilgan amaliy mashg'uloti talabalarga fanga qiziqi- shi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollilikka intilish uyg'otsa, o'qituvchilarga o'z ilmiy- nazariy malakasiga oshirishga, ilmiy adabiyotlarga ijobjiy munosabatda bo'lish, fan yangiliklarga ishonch e'tiqod va fanga qo'yilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi. Demak, amaliy mashg'ulot- larining sifatlari va samarali o'tishiga o'qituvchi mahorati muhim rol o'ynaydi. Amaliy mashg'uloti o'ziga xos ta'limiy va tarbiya- viy ahamiyatga ega. Amaliy mashg'uloti

haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi kerak. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma’lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi. Xulosa qilib aytganda amaliy mashg‘u lotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – amaliyni har tomonlama rivojlantirish va o‘quvchilarni rag‘batlantirishdan iborat.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Tojiboeva D., Yo’ldoshev A. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent, “Aloqachi”, 2009.
2. Azizxo’jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent: TDPU, 2003.
3. P.Maxsudov Kasb ta`limi metodikasi N.,2012y 122-b
4. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta`limi uslubiyati. Toshkent, “Iqtisod–moliya”, 2006.